



“TASDIQLAYMAN”
Qarshi davlat universiteti
rektori D.X. Nabiyev
«09» 09 2024yil

Qarshi davlat universitetida faoliyat yurituvchi xodimning yillik deklaratsiyani to‘ldirish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risidagi

DEKLARATSIYA

F.I.SH. (to‘liq):	
Qarshi davlat universitetining tarkibiy bo‘linmasi:	
Egallab turgan lavozimi:	
Bevosita bo‘ysunuvchi rahbarining F.I.SH. va lavozimi	

Ushbu deklaratsiyada quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya‘ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari;

aloqador shaxslar – xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik universitet xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan universitetning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – universitet tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

T/r	Deklaratsiyani to'ldirish uchun savollar
1.	<p>Siz biror bir tashkilotning xodimi, boshqaruv organining a'zosi (kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va boshqalar), direktori yoki vakili hisoblanasizmi? Javob berishda quyidagilarni e'tiborga olish so'raladi, tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tijorat va notijorat tashkilotlarda ulushingiz mavjudmi, shuningdek ushbu tashkilotlardan har qanday shakldagi kompensatsiya olasizmi?</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, tashkilot nomi va undagi lavozimingizni yozing)</i></p>
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
2.	<p>Sizni yoki Sizning yaqin qarindoshingizni qaysidir tashkilotda u yoki bu ko'rinishda moliyaviy manfaatdorligi (shu jumladan, ustav kapitalida ishtirok etish, aksiyalar va obligatsiyalarga egalik qilish) mavjudmi yoxud bunday tashkilotlarda qaror qabul qilinishiga boshqacha tarzda ta'sir o'tkaza olasizmi? (har qanday tashkilotning umumfoydalanishda bo'lmagan aksiyalariga egalik qilasizmi yoki ustav kapitalida ulushingiz mavjudmi yoxud Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjalarida har qanday tashkilotning 5% va undan yuqori bo'lgan umumfoydalanishdagi qimmatli qog'ozlariga egalik qilasizmi?)</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh" qismida barcha tegishli tashkilotlar nomlarini hamda ulardagi Sizning manfaatingiz ko'rinishi (ustav kapitalida qatnashish ulushi, aksiyalarga egalik qilish va h.k.)ni ko'rsating.</i></p>
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
3.	<p>Universitetda, tasarrufidagi akademik litsey yoki birlashtirilgan texnikumda Sizning yaqin qarindoshlaringiz (Sizga aloqador shaxslar) ishlaydilarimi?</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh" qismida yaqin qarindoshingiz (Sizga aloqador shaxs) ismi-sharifi, lavozimi va u ishlayotgan bo'linma/bo'lim/boshqarma nomini aniq yozing.</i></p>
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
4.	<p>Sizning yaqin qarindoshlaringiz, ularning farzandlari yoki Sizga aloqador shaxslar, ularning farzandlari universitet, tasarrufidagi akademik litsey yoki birlashtirilgan texnikumlarida o'qiydimi?</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh"</i></p>

	qismida bunday qarindoshingiz ismi-sharifi, tahsil olayotgan ta'lim muassasasini yozib qoldiring)
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
5.	<p>Sizning yaqin qarindoshlaringiz biror bir tashkilotning xodimi, boshqaruv organining a'zosi (kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va boshqalar), direktori yoki vakili hisoblanadimi? Javob berishda quyidagilarni e'tiborga olish so'raladi, tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tijorat va notijorat tashkilotlarda ulushi mavjudmi, shuningdek ushbu tashkilotlardan har qanday shakldagi kompensatsiya oladimi?</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh" qismida yaqin qarindoshingiz ishlovchi tashkilot nomi va undagi lavozimini ko'rsating)</i></p>
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
6.	<p>Sizning yaqin qarindoshlaringiz davlat amaldori hisoblanadimi?</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh" qismida yaqin qarindoshingiz ismi-sharifi, lavozimi va tashkilot nomini yozib qoldiring)</i></p>
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
7.	<p>Siz bilan birgalikda tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida qatnashuvchi Sizga aloqador shaxslar mavjudmi, Respublika fond birjasida yoki boshqa fond birjalarida erkin muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari umumiy miqdorini besh foizidan kam bo'lgan holatlar bundan mustasno.</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh" qismida Sizga aloqador shaxslarning ismi-sharifi, barcha tegishli tashkilotlarning nomlanishi, ustav kapitalida qatnashishi va aksiyaga egalik qilish ulushini ko'rsating)</i></p>
	Ha/Yo'q
	<i>Sharh:</i>
8	<p>Xizmat vazifangizni bajarish jarayonida qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qiluvchi noqonuniy tarzda yoki odob-axloq qoidalariga zid ravishda talqin qilinadigan pul mablag'lari yoki boshqa moddiy qimmatliklar, sovg'alar yoki xizmatlarni qabul qilib olganmisiz?</p> <p><i>(Izoh: "ha" yoki "yo'q" javobini belgilang. Agar javobingiz "ha" bo'lsa, "Sharh" qismida batafsil bayon etib o'ting)</i></p>

	Ha/Yo‘q
	Sharh:
9	O‘z xizmat lavozimingizdan shaxsiy manfaatlaringiz yoki yaqin qarindoshlaringiz (Sizga aloqador shaxslar) manfaatlari yo‘lida foydalanganmisiz? (Izoh: “ha” yoki “yo‘q” javobini belgilang. agar javobingiz “ha” bo‘lsa, “Sharh” qismida batafsil bayon etib o‘ting)
	Ha/Yo‘q
	Sharh:
10	Universitetdagi faoliyatingiz davomida Sizga ma‘lum bo‘lgan universitetga tegishli maxfiy ma‘lumotlarni o‘z shaxsiy manfaatingiz, yaqin qarindoshlaringiz yoki Sizga aloqador shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanganmisiz (shu jumladan yuridik yoki jismoniy shaxslarga oshkor qilganmisiz)? (Izoh: “ha” yoki “yo‘q” javobini belgilang. agar javobingiz “ha” bo‘lsa, “Sharh” qismida batafsil bayon etib o‘ting)
	Ha/Yo‘q
	Sharh:
11	Universitet xodimlari tomonidan universitetning korrupsiyaga qarshi va odob-axloq masalalari bo‘yicha ichki meyoriy hujjatlarini buzganligi to‘g‘risida xabardormisiz? (Izoh: “ha” yoki “yo‘q” javobini belgilang. agar javobingiz “ha” bo‘lsa, “Sharh” qismida batafsil bayon etib o‘ting)
	Ha/Yo‘q
	Sharh:
12	Manfaatlar to‘qnashuviga olib keluvchi boshqa vaziyatlar mavjud bo‘lganda, ularni ko‘rsatib o‘ting.
	Sharh:
13	O‘zingiz zarur deb topgan boshqa qo‘shimcha ma‘lumotni ko‘rsatib o‘ting.
	Sharh:

Ushbu deklaratsiyani imzolash bilan birga, quyidagilarni ham tasdiqlayman:

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Nizom, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalari hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom bilan tanishdim;
- ko'rsatib o'tilgan davrda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ichki hujjatlari bilan o'rnatilgan talablar va tamoyillarga amal qilib kelmoqdaman;
- menda manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi vaziyatlar **mavjud/mavjud emas;** (to'g'risini tagiga chizilsin);
- mazkur deklaratsiyada keltirib o'tilgan ma'lumotlarni to'liqligi va to'g'riligiga kafolat beraman hamda deklaratsiyani Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi/universitetning tegishli bo'linmasi tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman;
- men tomonimdan to'ldirilgan deklaratsiyadan tashqari menga ma'lum bo'lgan yangi holatlar to'g'risida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq vazirlik/universitetning tegishli bo'linmasiga darhol xabardor qilaman.

(F.I.O.)

(sana)

(imzo)

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
"Komplayens-nazorat" tizimini
boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi**



N. Srajidinova

Xodim _____ (F.I.SH. to'liq), uning yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslarini yuridik shaxsning boshqaruvida yoki ustav kapitalida ishtiroki to'g'risidagi
MA'LUMOT

Yuridik shaxs nomi	Egalik sub'ekti va qarindoshlik darajasi	Egalik ulushi /boshqaruvdgi roli	Yuridik shaxsning asosiy faoliyati

Xodimga aloqador shaxs _____ (F.I.SH. to'liq) tijorat tashkilotlari ustav kapitalida ishtiroki to'g'risidagi
MA'LUMOT

Yuridik shaxs nomi	Familiya, ismi va otasining ismi	Egalik ulushi

Xodim _____ (F.I.SH. to'liq) yaqin qarindoshini ta'lim muassasalarida (*akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum, oliy ta'lim muassasasi*) o'qiyotgan talaba/o'quvchi haqida
MA'LUMOT

Ta'lim muassasasi nomi	Familiya, ismi va otasining ismi	Qarindoshlik darajasi	Tahsil olish statusi (o'quvchi / bakalavriat / magistratura)